



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI



"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
TOSHKENT VILOYATI
BOSHQARMASI

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: +998 71 244-43-56, E-mail: vilekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig'i: Qambarov Giyosbek Sayfidinovich

Sana: 21-02-2025 yil



YIG'MA EKSPERT XULOSASI

230892 - SONLI

Obyekt nomi: "4K253A "Islom Karimov shoh ko'chasiga" shahobcha avtomobil yo'lidan M39 "Toshkent Termiz" avtomobil yo'lga ulanuvchi yangi yo'nalishdagi umumiy foydalanishdagi 4km avtomobil yo'li va 700pm uzunlikdagi yo'l o'tkazgich qurish" 2-qism (01.12.2024-yil holatiga qoldiq ish hajmlarini qayta hisoblash).	
Buyurtmachi:	UMUMIY FOYDALANISHDAGI AVTOMOBIL YO'LLARINI QURISH VA REKONSTRUKSIYA QILISH DIREKSIYASI DUK
Bosh loyihachi:	BOSHTRANSLOYIHA AJ
Moliyalashtirish manbai:	Davlat byudjed mablag'lari
Bosh pudratchi:	"Qamchiqavtoyo'l ixtisoslashtirilgan yo'llardan foydalanish korxonasi"DM.
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	047052

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi PQ-98-sonli qarori.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-9-aprel kunlari Jizzax viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar bo'yicha 23-bayoni.

1.3. Buyurtmachi tomonidan 2024-yilda tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.

1.4. Buyurtmachi hamda bosh pudratchi "Qamchiqavtoyo'l ixtisoslashtirilgan yo'llardan foydalanish korxonasi" DM tomonidan 2024-yilda tasdiqlangan narhlar kelishuv bayonnomasi.

1.5. Buyurtmachi "Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish direksiyasi" DUK tomonidan bajarilgan 2025-yil 1-yanvar holatiga qoldiq ish hajmlarini qayta hisoblash dalolatnomasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiga ko'ra 4K253A "Islom Karimov shoh ko'chasiga" shahobcha avtomobil yo'lidan M39 "Toshkent Termiz" avtomobil yo'lga ulanuvchi yangi yo'nalishdagi umumiy foydalanishdagi 4km avtomobil yo'li va 700pm uzunlikdagi yo'l o'tkazgich qurish" obyektining

elektron shaklda taqdim qilingan loyiha va loyiha oldi hujjatlari (Qoldiq ish hajmlarini qayta hisoblash).

2.2. "Shaharsorzlik hujjatlari ekspertizasi" DUK Toshkent viloyati filiali tomonidan «Jizzax shahrida 4K-253A "Islom Karimov shoh ko'chasiga" shahobcha avtomobil yo'lidan M39 "Toshkent-Termiz" avtomobil yo'liga" ulanuvchi yangi yo'nalishdagi umumiy foydalanishdagi 4 km avtomobil yo'li va 700 pm uzunlikdagi yo'l o'tkazgich qurish» 2022-yil 19-sentabrda 61680 -sonli yig'ma ekspert xulosasi berilgan.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Asosiy loyiha yechimi:

Asosiy loyiha yechimiga ko'ra Vazirlar Mahkamasining (*maxsus*) farmoyishiga asosan I-bosqich 700pm yo'l o'tkazgichning qurish loyihasini 2-qismga ajratgan. 2-qism (Qoldiq ish hajmlarini qayta hisoblash) smeta hujjatlarida quyidagi ishlar nazarda tutilgan. Shu jumladan;

- PK 36071+99 - PK 36071+59 oralig'ida yo'l o'tkazgich qurilishi;
- Qurilish hududidan SCB qurilmalarini ko'chirish;
- "TURON MEDIA" XK ning optic-tola kabelini PK 36071+88 - PK 36071+11 oralig'idagi yo'l o'tkazgich qurilish hududidan ko'chirish;
- Jizzax "O'zbektelekom" AK ning 0+000 km - 0+720 km (loyiha bo'yicha avtomobil yo'li) oralig'ida avtomobil yo'li qurilishi hududidagi aloqa qurilmalari kabel kanalizatsiyasini qayta qurish A/D);
- "O'zbektelekom" AKning mavjud aloqa kabelini 3+846,5 km - 3+893,8 km, 1+285,8 km - 0+907 km (loyiha bo'yicha avtomobil yo'li) oralig'ida avtomobil yo'li qurilishi hududidan ko'chirish A/D);
- Mavjud 0,4 kV 3 simli havo liniyasini loyihalashtirilayotgan avtomobil yo'li bilan PK 29+6,18 da kesishishini qayta qurish;
- Mavjud 10 kV 3 simli havo liniyasini loyihalashtirilayotgan avtomobil yo'li bilan PK 28+97,29 da kesishishini qayta qurish;
- Mavjud 10 kV 3 simli havo liniyasini loyihalashtirilayotgan avtomobil yo'li bilan PK 16+28,8 da kesishishini qayta qurish;
- Mavjud 10 kV 3 simli havo liniyasini loyihalashtirilayotgan avtomobil yo'li bilan PK 25+51,48 da kesishishini qayta qurish;
- PK3+44,2 va PK3+95,3 dagi DM-200 mm kanalizatsiyasini qayta qurish;
- Mavjud 10 kv a/b va p.e. elektr liniyasini loyihalashtirilayotgan avtomobil yo'li bilan pk 7+79,11 da qayta qurish;
- Kontakt tarmog'ini qayta sozlash;
- PK 8+97-pk 12+17 uchastkasida loyihalashtirilayotgan avtomobil yo'li qurilish zonasidan mavjud vl-10kv 3pr elektr liniyasini ko'chirish;
- Past bosimli gaz quvurini qayta o'tkazish;
- Tayanch ustunlarni va oraliq tayanchlarni qurish;
- Magistral gaz quvuri (chiziqli qismi) km0+812,234 dagi monolit yo'l o'tkazgichning ta'mirlash ishlari.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Loyiha hujjatlariga ko'ra amalga oshilishi lozim.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashidan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor tashkilotlar bilan kelishish lozim.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan **67 212 616 834** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

366 517 263 so'mga kamaytirilib, **66 846 099 571** so'mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **59 504 433 758** so'm

Asbob-uskunalar: **179 583 717** so'm

QQS: **7 162 082 097** so'm

Buyurtmachining 2025-yil 25-fevral FSh/05-433-sonli xatidagi ma'lumotlarga ko'ra pudratchi tomonidan 2024 yil 1-dekabr holatiga ob'ektda xaqiqatdan bajarilgan qurilish-montaj ishlar qiymati qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan 60 922 685 598 so'mni tashkil qiladi. Ob'ekt bo'yicha dastlabki smeta narxlari asosida qoldiq ishlar qiymatini joriy narxlarga qayta hisoblanib hamda qo'shimcha o'zgartirishlar kiritilgandan so'ng qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan 66 846 099 571 so'mni tashkil qilib, ob'ektning umumiy qiymati qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan 127 768 785 169 so'mni tashkil etadi.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, texnologik, muhandislik, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari bo'yicha e'tirozlarisiz taqdim etilgan.

6.2. *Yer ishlarini bajarishdan oldin, kutilmagan holatlarning oldini olish uchun, mavjud bo'lgan yer osti muhandislik tarmoqlari va kommunikatsiyalarining haqiqiy joylashuvini, mahalliy ekspluatatsiya xizmatlari vakillari bilan aniqlash zarurligi ta'kidlanadi.*

6.3. Ekspertiza jarayonida soxalar ekspertlari xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihaga tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi

6.4. Buyurtmachi Pudratchi tashkilotdan F-2 va F-3 (bajarilgan ishlar dalolatnomasi, hisob-faktura)ni qabul qilib olishda ShNK-4-01-16-09 ning 6-bobiga asosan pudratchining boshqa harajatlari, ishchilarning ish haqi kishi/soati hamda mashina-mexanizmlar, uskuna vazijozlar, ishlab chiqarishdagi harajatlar qiymatlarini asoslovchi hujjatlar asosida bajarilgan ishlarni qabul qilib olishi lozim.

6.5. Yakuniy narx buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilishni tugatgandan so'ng, nazorat o'lchovi natijalariga ko'ra, haqqoniy bajarilgan ish hajmiga muvofiq belgilanadi.

6.6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.09.2021 yildagi 579-sonli qarorining III-bob 29-bandiga, ShNQ 1.03.06-13, II bob, 8-bandi muvofiq Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchligi yuzasidan buyurtmachiga va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiqaruvchi javobgar hisoblanadi.

6.7. Buyurtmachi asbob-uskunalar sotib olayotganda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi 332 - son qarori va O'zbekiston Respublikasi 2021-yil 22-apreldagi 684 - son "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunga amal qilishi kerak.

6.8. Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari Mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong'in xavfsizligiga rioya qilinsin.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda **"4K253A "Islom Karimov shoh ko'chasiga" shahobcha avtomobil yo'lidan M39 "Toshkent Termiz" avtomobil yo'liga ulanuvchi yangi yo'nalishdagi umumiy foydalanishdagi 4km avtomobil yo'li va 700pm uzunlikdagi yo'l o'tkazgich qurish" 2-qism (01.12.2024-yil holatiga qoldiq ish hajmlarini qayta hisoblash)** obyektining smeta hujjatlari kelgusida ko'rib chiqish va kelishishga tavsiya

etiladi.

Bosh ekspert: Djunaydullayeva Feruza Ulugbekovna.

Ishtirokchi ekspertlar: Djunaydullayeva Feruza Ulugbekovna, Nurmetov Timur Kurambayevich, Mirxodjayev Shuxrat Amanullayevich